

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

BYUDJET HISOBI VA DAVLAT JAMG‘ARMALARI FAKULTETI

**“BYUDJET HISOBI” KAFEDRASI
ISMATOVA IRODA AZAMAT QIZI**

**“BYUDJET TASHKILOTLARIDA SMETALARNI XAMDA
SHTATLAR JADVALINI TUZISH VA UNI IJROSI HISOBI ”**

5341800 -“Byudjet hisobi va nazorat” ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavr
darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga ruxsat etildi»

« Byudjet hisobi » kafedrası mudiri

_____ i.f.n., dots. S.Mexmonov

(imzo)

“ ____ ” _____2013 y.

Ilmiy rahbar: _____ i.f.n dots G’aniyev. Sh

(imzo)

“ ____ ” _____2013 y.

Toshkent 2013

Kirish.	3
I-Bob. Byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasini xamda shtatlar jadvalini tuzish va tasdiqlash tartibi.....	8
I.1. Byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzishning hususiyati, maqsadi va ahamiyati.....	8
I.2. Byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasini va shtatlar jadvalini tuzish ko‘rib chiqish va tasdiqlash tartibi xuquqiy asoslari.....	15
II -Bob. Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali tuzilish hisobining amaliy jihatlari.....	29
II.1 Byudjet tashkilotlaridan mablag’ oluvchilarning xarajatlar smetalarni g’aznachilik bo’limlariga taqdim etish.....	29
II.2.Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali ijrosining xisobi.....	35
III-Bob. Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalining buxgalteriya hisobi xususiyatlarini takomillashtirish.....	42
III.1. Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasi nazoratini takomillashtirish..	42
III.2 Shtatlar jadvalining ijrosini takomillashtirish.....	45
Xulosa va takliflar.....	51
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	54

Kirish

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. O‘zbekistonda qabul qilingan o‘ziga xos islohot va modernizatsiya modelida moliyaviy-iqtisodiy inqirozning kelib chiqishi va salbiy oqibatlari ta’siriga qarshi tamoyillarning mujassam ekanligi. Islohotlarning izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi. Davlatning bosh islohotchi sifatida mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi. Mamlakatimizda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi hamda real sektor korxona va tarmoqlarining barqarorligini ta’minlash uchun etarli zaxiralar yaratilganligini, jumladan, “2000 yil bilan taqqoslaganda, real daromad aholi jon boshiga 8,6 barobar ko‘paydi. Hisob kitoblarga ko‘ra, o‘rtacha ish haqi isto‘mol savatchasi bahosidan 4 barobardan ziyod oshdi”¹. Mamlakatimizning jahon iqtisodiy maydonida ishonchli va to‘lov qobiliyatiga ega hamkor ekanligi. Chet el sarmoyasini jalb etish bo‘yicha qulay shart-sharoitlarning yaratilganligi. O‘zbekiston – xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi. 2013 yilda byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdorini o‘rtacha 23 foizdan kam bo‘lmagan darajada oshirish. 2013 yilda va keyingi ikki yilda aholi real daromadlarini kamida biryarim barobar ko‘paytirish vazifasi qo‘yilmoda².

Ko‘rib chiqilayotgan ishning dolzarbligi, respublikamizdagi byudjet tashkilotlarining buxgalteriya hisobi, tahlili va audit tizimini xalqaro buxgalteriya hisobi va audit standartlari bilan taqqoslash muammolari, ularning nazariy jihatdan etarli darajada ishlab chiqilmaganligi hamda hozirgi sharoitda

¹ I.A.Karimov 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi gazetasining 2013 yil 19 yanvar №13 (5687).

² I.A.Karimov 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi gazetasining 2013 yil 19 yanvar №13 (5687).

alohida amaliy ahamiyatga ega ekanligi bitiruv malakaviy ishining mavzusi, maqsadi va vazifasini hamda tadqiqot natijalarining yo‘nalishini tanlashni belgilab berdi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashchda byudjet tashkilotlaridasmetalarni tuzish va uni ijrosi hisobini tashkil qilish va umuman iqtisodiyotda xorijiy davlatlarning etakchi iqtisodchi olimlari V.I.Xorujiy, K. Druri, B.Rayan, Ch.T.Xorngren, Dj.Foster, V. Govindaradjan, Dj.K. Shim va boshqalar, respublikamizda qator iqtisodchi olimlar va amaliyotchi mutaxassislar M.Sh.Sharifxo‘jaev, A.Ibragimov., B.A.Xasanov, A.S.Sotivoldiev, L.P.Yugay, A.T.Ibrohimov, M.M.To‘laxodjaeva, B.K.Hamdamov, S.U Mexmonov, Sh.V. G‘aniev va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan bo‘lib, ularda iqtisodiyotni rivojlanishi davrlari bo‘yicha ilmiy yondashuvlar aks ettirilgan. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi sharoitida O‘zbekistonning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirgan holda byudjet tashkilotlari rivojlanishiga ijobiy tasir etish imkoniyatini beruvchi va ayni paytda tashkilot daromadlarining barqaror, mustahkam manbaini shakllantirishga qaratilgan hisob siyosatini ishlab chiqish, va amaliyotini uyg‘unlikda kompleks tadqiq qilishga yo‘naltirilgan maxsus ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan.

Mana shu holat O‘zbekiston iqtisodiyotidagi byudjet jarayonni nazariy jihatdan tadqiq qilish hamda byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalining buxgalteriya hisobi xususiyatlarini bozor munosabatlari talablari va mezonlari darajasida tashkil qilish va takomillashtirish, uslubiy jihatdan asoslab berish, byudjet tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalining hozirgi davr shart-sharoitlariga mos keladigan qoidalarini ishlab chiqish zaruratini talab etmoqda.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalining buxgalteriya hisobi xususiyatlarini tashkil etish va uni takomillashtirishni nazariy asoslash hamda aniq tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- tasdiqlangan byudjet parametrlari xarajatlar smetalari va shtatlar jadvali doirasida birinchi va ikkinchi guruhlariga kiritilgan to'lovlarni birinchi navbatda belgilangan vaqtda to'liq moliyalashtirishni aniqlash;

- uchinchi guruh bo'yicha kapital qo'yilmalar xarajatlarini investitsiya dasturiga kiritilgan ob'ektlarning manzilli ro'yxatlari bo'yicha o'rnatilgan moliyalashtirish rejalari doirasida amalga oshirish;

- xarajatlarning to'rtinchi guruhiga kiritilgan ustuvor to'lovlar, oziq -ovqat va dori-darmonlar sotib olish xarajatlarini birinchi va ikkinchi guruh to'lovlari to'liq amalga oshirilgandan keyingina belgilab berish;

- boshqa moddalar bo'yicha xarajatlarni (kapital qo'yilmalar, safar va o'quv xarajatlari, kommunal xizmatlar, xo'jalik xarajatlari, yumshoq va boshqa jihozlar sotib olish, kapital ta'mirlash va boshqa xarajatlar) yuqoridagi to'lovlar to'liq amalga oshirilgandan so'ng daromadlar tushumiga qarab tartibini aniqlash;

- xizmat kursatuvchi tijorat banklari tomonidan xarajatlarni naqd pul bilan ta'minlashning belgilangan muddatlari buzilgan taqdirda, uch kun ichida tijorat banklariga nisbatan xo'jalik sudlariga byudjetga keltirilgan zararni qoplash uchun belgilangan tartibi yuzasidan takliflar berish;

-huquqiy shaxs maqomi berilgan byudjet tashkilotlarining faoliyatlarini mustaqil ravishda amalga oshirishlari uchun buxgalteriya hisobi xususiyatlarini hisobga olish tartibini aniqlash.

Tadqiqotning predmeti va ob'ekti. faoliyatlari byudjet jarayon bilan bog'liq bo'lgan O'zbekiston Respublikasi hududidagi tashkilotlarlar hisoblanadi. Ishda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritilishi haqida, byudjet tashkiloti buxgalteriyasi ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari. Tadqiqotning nazariy asosini xorij va mamlakatimizdagi iqtisodchi olimlar hamda etakchi mutaxassislarni byudjet tashkilotlarida smetalarni hamda shtatlar jadvalini tuzish va uni ijrosi hisobiga oid qabul qilinayotgan me'yoriy xuquqiy xujjatlar, Respublikamiz Prezidenti I.Karimovning byudjet tashkilotlari barqarorligini mustaxkamlashga oid asarlarida ilgari surilgan ilmiy g'oyalar va fikrlari ilmiy izlanishni nazariy va uslubiy asosi sifatida qo'llanildi.

BMI predmetini tadqiq qilishda, yillik hisobotlar, ommaviy axborot vositalarida nashr qilingan statistik materiallar, qonun va me'yoriy xujjatlardan keng foydalanildi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

- Byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalining elementlarini tashkil etishning ilmiy asoslanganligi;
- Byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasini va shtatlar jadvalini tuzish ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibining xususiyatlari ochib berilganligi;
- Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali ijrosi xisobining usullari belgilanganligi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqot ishi bo'yicha erishilgan natijalar quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

- Byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tashkil etish ilmiy jihatdan asoslandi;

- Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali ijrosining xisobi tamoyillari va uslubiy asoslari ochib berildi;

- Byudjet tashkilotlarida xarajatlarni to'lashning bank-mijoz tizimining hozirgi holati tadqiq qilindi;

- Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalining ijrosini va nazoratini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi;

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasidan olingan ilmiy, amaliy xulosalar, taklif, muloxazalar byudjet tashkilotlari hisobini tashkil etish uslubiyotini takomillashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot ishining tarkibiy tuzilishi va xajmi. Ilmiy ish kirish, uchta bob, xulosa, takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat.

I-Bob. Byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasini xamda shtatlar jadvalini tuzish va tasdiqlash tartibi.

I.1. Byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzishning hususiyati, maqsadi va ahamiyati

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida turuvchi tashkilotlarning byudjetdan ajratilgan mablag‘lar bo‘yicha xarajatlar smetasini va byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha daromadlar va xarajatlar smetalarini tuzish, ko‘rib chiqish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish, shuningdek shtatlar jadvalini tuzish va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi³ bilan belgilangan.

Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

xarajatlar smetasi — tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo‘lib, unda tashkilotlar uchun xarajatlar moddalari bo‘yicha ko‘zda tutilgan byudjetdan ajratilgan mablag‘lar (xarajatlar rejasi) aks ettiriladi;

byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smeta — tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo‘lib, unda tashkil bo‘lish manbalari va ushbu mablag‘larning qonunchilikka muvofiq foydalanish yo‘nalishlari ko‘rsatilgan holda byudjetdan tashqari daromadlar tushumlarining prognoz hajmlari aks ettiriladi;

xarajatlar moddasi — byudjet tasnifining qismi bo‘lib, Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tayinlanishi va to‘lovlarni aniq turlarini ifodalaydi;

vaqtinchalik xarajatlar smetasi — tashkilotlarning xarajatlar smetasi tasdiqlangunga va ro‘yxatdan o‘tkazilgunga qadar amal qiluvchi hujjat bo‘lib,

³ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010 yil 29 oktyabrdagi 92-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, ko‘rib chiqish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom” Adliya vazirligi tomonidan 2010 yil 19 noyabrda 2157 son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

unda byudjet tashkilotlari uchun ko‘zda tutilgan, qonunchilikka o‘zgartirishlarni hisobga olgan holda, har oyda avvalgi moliya yilining oxirgi choragidagi byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning uchdan bir qismidan ortiq bo‘lmagan miqdordagi byudjetdan ajratilgan mablag‘lar (xarajatlar rejasi) aks ettiriladi;

byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari — qonunchilikda nazarda tutilgan byudjetdan tashqari manbalar hisobidan tashkilotlar ixtiyoriga kelib tushadigan mablag‘lar. Shtatlar jadvalini tasdiqlangan tashkiliy tuzilma, shtat birliklari, namunaviy shtatlar va byudjetdan moliyalashtirish me‘yorlariga muvofiq ishlab chiqadilar va tasdiqlaydilar.

Byudjet ijrosi jarayonida yuzaga keladigan barcha qo‘shimcha xarajatlarga tashkilotlarning xarajatlar smetalariga qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritib boriladi

Bir vaktning o‘zida o‘zlariga karashli tashkilotlarga ijtimoiy rivojlanishning iktisodiy ko‘rsatkichlari asosida (sinflar, o‘kuvchilar, bolalar, shifoxonalarda joy - kunlar, bola-kunlar soni va x.k.) kelgusi yil uchun ishlab chikarish ko‘rsatkichlarini yozma ravishda xabar kiladilar. Xarajat smetalari bo‘yicha xarajatlarni xisoblab chikish mablaglarga bo‘lgan extiyojga muvofik iktisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini va iqtisod qilishning qat’iy tartibini amalga oshirishni xisobga olgan xolda amalga oshiriladi.

Xarajatlarni xisoblab chiqishda quyidagilarga amal qilishi maqsadga muvofiqdir:

- O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining boshqa qarorlari, Prezident farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining idoraviy normativ xujjatlariga;

- byudjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirishning normativ uslubiga;

- tovar va xizmatlarini davlat tomonidan tartibga solinadigan baholari va tariflariga, shuningdek nodavlat korxonalari va tashkilotlarining ayrim tovarlari va xizmatlari baholariga;

- O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralarining rahbarlari, tegishli xokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlari rahbarlarining o'ziga qarashli tashkilotlarning kelgusi yil uchun xarajatlar smetalarini tuzish masalalari bo'yicha ko'rsatmalari va takliflariga, agarda ular qonun hujjatlariga zid bo'lmasa.

Jumladan:

- Xarajatlar smetasiga ish xaqi uchun mablaglar byudjet to'grisidagi maoshlari va ish xaqi stavkalari va ularga qo'shimcha to'lovlardan, amaldagi namunaviy shtatlar va normativlarga rioya qilishdan kelib chiqib amalga oshiriladi. Xo'jalik usuli bilan bajariladigan ishlar uchun ish haqqi smetalarga byudjet yili xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan ish hajmlaridan kelib chiqib kiritiladi;

- pedagoglar ish xaqi uchun mablaglarni ajratishda, qonun hujjatlarida belgilangan ish xaqi stavkalaridan xamda o'quv xajmiga muvofik tuzilgan o'quv rejasi, tasdiqlangan tarifikatsiyaga muvofiq daftar tekshirish va sinf rahbarligi uchun ko'shimcha xaq to'lash me'yorlaridan va x.k. dan kelib chiqilib amalga oshirilishi darkor;

- xodimlarning ayrim guruhlariga uy joylarni va kommunal xizmatlarni bepul berish uchun ketadigan xarajatlar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi;

- oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, kasb - hunar texnika bilim yurtlari, kurslar o'quvchilari va talabalari, aspirantlar va doktorantlar stipendiyalariga ketadigan xarajatlar stipendiyalar miqdori va amaldagi stipendiya ta'minoti tartibidan kelib chiqqan xolda xisoblanadi;

- davolash, bolalar va boshqa ijtimoiy-madaniy tashkilotlarda ovqatlanishga ketadigan xarajatlar qonun hujjatlari bilan tasdiqlangan tashkilotlarning ayrim turlari uchun belgilangan ovqatlanish me'yorlari ovqatlanish qunining sonidan kelib chiqib hisoblanadi;

- dori-darmonlarga ketadigan xarajatlar qonun hujjatlari bilan belgilangan pul xarajatlari me'yoriga qarab: statsionarlarda - har bir joy-kunga, shifoxonalarda - shifokorga xar bir kirishga belgilanadi, agar qonun hujjatlarida boshqasi ko'rsatilmagan bo'lsa;

- ijtimoiy-madaniy tashkilotlarni ayrim guruhi uchun kiyim-kechak, poyafzal, choyshab, yotish anjomlari va boshqa yumshoq buyumlar sotib olishga ketadigan xarajatlar, moddiy ta'minotning amaldagi me'yorlar normalari asosida, lekin ajratilgan mablaglar doirasida, hisob ishlari amalga oshiriladi;

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan va xarajatlarning byudjet mablaglaridan tashkari qoplashning boshqa manbalariga ega bo'lgan tashkilotlarlar xam ko'shimcha daromadlar va ulardan kelib chiqadigan xarajatlarga smetalari tuzadilar.

Bu xarajat smetalari bo'yicha daromadlar tushumi qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarga qarab aniqlanadi.

Tuman, shahar, shahar bo'ysunuvidagi tumanlar byudjetlarida turuvchi va markazlashgan buxgalteriyalar orqali xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlar bo'yicha ayrim xollarda umumiy xarajatlar smetalari tuzilishi mumkin:

- bir turdagi kichik tashkilotlar bo'yicha - veteranariya uchastka va punktlari, kishloq klublari, kutubxonalar, feldsher-akusherlik punktlari va boshqa kichik tashkilotlar bo'yicha;

- bir turdagi yirik tashkilotlar bo'yicha, qachonki ularga xo'jalik xizmatlarini ko'rsatish markazlashgan holda xo'jalik xizmatlarini ko'rsatishning maxsus guruxlari orqali amalga oshirilsa;

- tegishli hokimiyatlarning apparatini va ularning bo'limlarini saqlashga;

Umumiy xarajatlar smetasi bir turdagi tashkilotlar guruhini saqlash xarajatlariga byudjetdan ajratiladigan mablaglarning xajmini maqsadli yoʻnalishini va choraklar boʻyicha taqsimotini belgilovchi hujjat boʻlib xisoblanadi. Tumanlar, shaxarlar xokimiyatlarining tegishli boshqarma va boʻlimlari rahbarlari umumiy xarajatlar smetalarida koʻrsatilgan mablagʻlarni taqsimot qiluvchilar boʻlib xisoblanadilar.

Umumiy xarajat smetalari, xizmat koʻrsatiladigan tashkilotlarning rahbarlaridan olingan buyurtmalar markazlashgan buxgalteriyada mavjud boʻlgan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish koʻrsatkichlariga muvofiq qabul qilingan xisob-kitob va xisobot maʼlumotlari asosida markazlashgan buxgalteriya tomonidan tuziladi.

Umumiy smetalar tuzish uchun buyurtmalar hokimiyatlarning tegishli boshqarma va boʻlimlari tomonidan belgilangan shakllar yoki koʻrsatkichlar roʻyxati boʻyicha xarajatlarning guruxlari boʻyicha va xarajat smetalariga qilingan xisoblarni ilova qilgan xolda tashkilotlar tomonidan taqdim kilinadi.

Buyurtmalarda quyidagi maʼlumotlar koʻrsatiladi:

- oʻqituvchilar, tibbiyot va boshqa xodimlarining uylarini isitish, yoritish va suv bilan taʼminlash uchun yoqilgi, elektroenergiya miqdorini ajratish uchun, shuningdek amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq oʻqituvchilarga bepul kommunal xizmatlar koʻrsatish va bepul taʼminlash xarajatlarini xisoblab chikarish uchun natural koʻrsatkichlar;

- sotib olinishga moʻljallangan asbob-uskunalar va jixozlar roʻyxati;

- kapital taʼmirlash boʻyicha asosiy ishlarning roʻyxati;

- bepul va imtiyozli ovqat beriladigan oʻquvchilarning soni;

- bepul maktab anjomlarini oladigan birinchi sinf oʻquvchilarining soni, shuningdek kam taʼminlangan oilalar bolalaridan qishki kiyim va poyafzal oladigan boshlangʻich sinf oʻquvchilarining soni;

- kommunal xizmatlari bo'yicha imtiyozlar oladigan o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari va boshqa xodimlarning soni.

Tashkilotlar tomonidan berilgan buyurtmalar markazlashgan buxgalteriyalar tomonidan tegishli tashkilotlarning vakillari ishtirokida oldindan ko'rib chikiladi va umumiy smetalarni tuzishda hisobga oladi.

Ish xaqi bo'yicha umumiy smetaga belgilangan tartibda tasdiqlangan shtatlar jadvali va tarifikatsiya ro'yxatlari ilova kilinadi.

Markazlashgan buxgalteriya tomonidan tuzilgan umumiy smetalarning loyihalari tuman, shahar xokimiyatlarining tegishli bo'limlari rahbarlari tomonidan tegishli tashkilotlarning rahbarlari ishtirokida ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Tashkilotlarning xarajatlari smetalari uch nusxada tuziladi va tashkilotlarning rahbarlari, xamda hisob xodimlari tomonidan imzolanadi, smetaning birinchi nusxasi tashkilotda, ikkinchi nusxasi tegishli maxalliy moliya organida qoladi va uchinchi nusxasi yukori tashkilotga takdim etiladi.

Tegishli moliya organlari smetalarni chuqurrok o'rganish maksadida vazirliklardan, idoralardan, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo'limlaridan tashkilotlar smetalarini tuzish va ijro etish jarayonning istalgan bosqichida ilovalar va xisob-kitoblarni qaytarib berish sharti bilan talab kilish xuquqiga ega, byudjetdan mablag' oluvchilar esa bu xisob-kitoblarni moliya organiga birinchi talab qilinishi bilanoq taqdim qilishi maqsadga muvofiqdir.

Markazlashgan buxgalteriyalar tomonidan xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarining xarajatlar smetasi markazlashgan buxgalteriyalar bosh buxgalteri yoki iqtisodchisi ishtirokida tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqlpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari va xokimiyatlar boshqarmalari va bo'limlari tomonidan o'tkaziladigan byudjetdan moliyalashtiriladigan markazlashgan tadbirlarning xarajatlar smetasi

tegishincha vazirliklar, idoralar, xokimiyatlar boshqarma va bo'limlari tomonidan xar bir tadbir bo'yicha aloxida tuziladi.

Inventarlar, asbob-uskuna va tashkilotlarning o'quv ko'llanmalarini sotib olish uchun mablaglar tegishli tashkilotlarning smetalarida ko'zda tutilishi lozim.

Byudjet tashkilotlarida ularni markazlashgan holda inventarlar, asbob-uskunalar va o'quv ko'llanmalari bilan ta'minlash zarurati yuzaga kelganda, bu maqsadlar uchun mablag'lar markazlashgan tartibda sotib olishni amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan tashkilotlarning xarajatlar smetalarida belgilangan mablag'lar doirasida moliya organlari bilan kelishib, belgilagan miqdorlarda va muddatlarda o'tkaziladi.

Shu tartibda O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpogiston Respublikasi tegishli vazirliklari va idoralariga, viloyatlar va Toshkent shaxar, shuningdek tegishli tuman, shaxar xokimiyatlari boshkarmalari va bo'limlariga markazlashgan ta'minot uchun mablag'larni byudjet tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpogiston Respublikasi moliya vazirliklari yoki viloyatlar moliya boshqarmalari bilan kelishilgan xolda tartib amalga oshiriladi.

Choraklar va yil oxirida byudjet tashkilotlaridan ishlatilmay qolgan mablag'larning qoldigi olib qo'yilmaydi, balki byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamgarmasiga o'tkaziladi⁴ va byudjet tashkilotlari tegishli moliya organlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan byudjet tashkilotlari uchun belgilangan xisobotlar tartibi bo'yicha yozma ravishda xabardor kiladilar.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli Byudjet tashkilotlarini mablag bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risidagi Karori ilovasining 22-23 bandlariga muvofik belgilangan tartibda xarajat kilinadi.

Kelgusi yilga ochilishi kerak bo'lgan tashkilotlarni tashkil etish, saqlash bo'yicha xarajatlar smetasi tegishli xokimiyatlarning boshqarma, bo'limlari tomonidan xar bir tashkilotga aloxida xolda, ish xaqining o'rtacha stavkasi va faoliyat ko'rsatayotgan tegishli tashkilotlarda mavjud bo'lgan xarajatlarning o'rtacha me'yorlaridan kelib chiqqan xolda tuziladi.

Bunda yangi tashkilotlarni saqlash uchun ketadigan xarajatlar ushbu tashkilotlar ochilishi belgilangan muddatlardan kelib chiqib, ushbu muddat to'g'ri keladigan yilning qismiga hisoblanadi.

Kelgusi yilda shaxar va qishlok maktablarining o'qituvchilari uchun ish xaki bo'yicha umumiy smetalarni tuzishda smetaga ilova va o'qituvchi, xamda maktabning boshqa xodimlari uchun tuman xalq ta'limi bo'limi smetasi bo'yicha nazarda tutilgan ish xaqi fondining xisob-kitobi to'ldiriladi.

Yilning birinchi qismi uchun (yanvar-avgust) oylik ish xaqi fondi yil boshiga tuman xalq ta'limi bo'limi tomonidan tasdiqlangan o'qituvchilarning tarifikatsiya ro'yxatiga to'g'ri kelgan mikdorda qabul kilinadi.

Yilning qolgan (sentyabr-dekabr) qismiga o'qituvchilarning oylik ish xaqi fondi rejalashtirilgan sinflar soni va shu davrga pedagoglar ish xaqi stavkasi, tuman (shaxar) xalk ta'limi bo'limlari tomonidan o'quv yil boshiga o'qituvchilarning tasdiqlangan tarifikatsiya ro'yxati bo'yicha belgilangan (1-4, 5-9, 10-12) sinflarning guruxlari bo'yicha ish xakining o'rtacha stavkasi doirasida xisoblanadi.

Jami xarajatlar smetasiga tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri tomonidan tasdiqlangan tarifikatsiya ro'yxatining umumlashtirilgan axborotnomasi ilova qilinishi maqsadga muvofiqdir.

I.2. Byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasini va shtatlar jadvalini tuzish ko‘rib chiqish va tasdiqlash tartibi huquqiy asoslari

Shtatlar jadvali rejalashtirilayotgan yilning 1 yanvar holatiga har bir tashkilot bo‘yicha alohida holda, ularning tuzilmaviy bo‘linmalari kesimida mazkur tashkilot uchun o‘rnatilgan mehnatga haq to‘lash shartlariga muvofiq ravishda tuziladi.

Shtatlar jadvaliga kiritiladigan lavozimlar nomlari va ma‘muriy-boshqaruv, o‘quv-yordamchi va yordamchi (xizmat ko‘rsatuvchi va texnik) xodimlarining soni, xodimlar va mehnatga haq to‘lash bo‘yicha ularning razryadlari (bazaviy stavkalari) quyidagilarga muvofiq bo‘lishi shart:

belgilangan tartibda tasdiqlangan namunaviy shtatlar jadvalida va mehnatga haq to‘lash bo‘yicha razryadlarda (bazaviy stavkalarda) nazarda tutilgan lavozimlarga;

xodimlarning umumiy birliklari doirasiga va boshqaruv xizmatchilarining xodimlar birliklariga;

davlat boshqaruv organlarida xodimlar toifalarining me‘yoriy nisbatlarini Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining boshqaruv, xizmat ko‘rsatuvchi va texnik xodimlari lavozimlarining nomenklaturasi⁵ bilan tarifikatsiya ro‘yxatiga muvofiq mehnatga haq to‘lanishi hisob-kitob qilinadigan lavozimlar shtatlar jadvaliga stavkalar soni, lavozimlarning har bir guruhi bo‘yicha (o‘qituvchilar), to‘lovlarning turlari bo‘yicha oylik mehnatga haq to‘lash jamg‘armasini ko‘rsatgan holda va tarifikatsiya ro‘yxatini shtatlar jadvaliga ilova qilgan holda kiritiladi.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralarining me‘yoriy hujjatlari axborotnomasi, 2003 y., 23-son. ro‘yxat raqami 1288, 2003 yil 9 dekabr.

Shtatlar jadvalida, shuningdek, yakun bo'yicha alohida qatorda mehnatga haq to'lash shartlarida nazarda tutilgan mehnatga haq to'lash jamg'armasi va yil bo'yicha hisob-kitoblar natijasida ustamalar to'lashga, qo'shimchalar va xodimlarni moddiy rag'batlantirishga yo'naltiriladigan mablag'lar ko'rsatiladi. masalan, mehnatga haq to'lash jamg'armasiga nisbatan 15 foiz miqdorda shakllanadigan Byudjet tashkilotlari va muassasalarini moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasi;

uzoq yillik mehnati uchun bir martalik rag'batlantirishni to'lash, moddiy yordam ko'rsatish, mukofotlash uchun mehnatga haq to'lash jamg'armasi va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetlarida hamda mahalliy byudjetlarda turuvchi har bir maktabni moliyalashtirish uchun tasdiqdangan xarajatlar smetalari⁶ bo'ladi va shu asosda byudjetdan moliyalashtirish amalga oshiriladi. Xarajatlar smetasi maktabni saqlashga hamda xo'jalik va madaniy qurilish bo'yicha markazlashtirilgan tadbirlarni amalga oshirishga byudjetdan moliyalashtirishning hajmini, maqsadli yo'nalishini va choraklar bo'yicha taksimotini belgilovchi asosiy reja hujjati bo'lib hisoblanadi.

Maktablar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli «Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi qaroriga va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan byudjetdan moliyalashtirish normativlariga asoslangan holda, tasdiqlangan namunaviy shtatlar asosida

⁶ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1999 yil 28 dekabrda «O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetlarida, shuningdek, viloyat, shahar va tuman mahalliy byudjetlarida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetalarini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi haqidagi yo'riqnoma» tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 2000 yil 3 fevralda 888-son bilan ro'yxatga olingan.

xarajatlar smetalari, shuningdek, shtat jadvallarini mustaqil ishlab chiqadi. Xarajatlar smetalariga faqat Oliy Majlis qarorlari, Prezident farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari, shu bilan birga belgilangan xarajatlar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli hokimiyatlar tomonidan, ularga berilgan huquqlar doirasida nazarda tutilgan xarajatlar kiritiladi.

Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi maktab bo'yicha xarajatlar smetalari 1 yanvardan 31 dekabrgacha bo'lgan muddatga tuziladi va amal qiladi. Joriy yilda ishga tushiriladigan maktablar bo'yicha esa ularning byudjet yilida ishlagan muddatiga tuziladi va amal qiladi.

Xarajatlar smetalari maktablar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining amaldagi iqtisodiy tasnifiga muvofiq xarajatlar guruhi bo'yicha, boshqa xarajatlar va ularning hisob-kitobini o'z ichiga olgan to'liq yoyilmasi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakllari asosida tuziladi. Maktablarning xarajatlar smetalari tegishli yuqori halq ta'limi organlari rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

Xarajatlar smetasini tuzish bo'yicha ishlarni tashkil etish davomida avval sanab o'tilgan maktablarning tegishli yuqori xalq ta'limi organlari o'zlarining tasarrufidagi maktablarga xalq deputatlari Kengashi sessiyasining qarorlaridan va moliya organlarining ushbu masala bo'yicha ko'rsatmalaridan kelib chiqib, kelgusi yil xarajatlar smetalarini tuzish tartibi va muddatlari haqida ko'rsatmalar beradilar. Bir vaqtning o'zida ularga ijtimoiy rivojlanishning iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida (sinflar soni, o'quvchilar soni va h.k.) kelgusi yil uchun ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yozma ravishda xabar qiladilar.

Maktablar o'zlarining xarajatlarini hisoblab chiqishda quyidagilarga amal qilinadi:

1) O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining boshqa qarorlari, Prezident farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining normativ hujjatlariga;

2) byudjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirishning normativ uslubiga;

3) tovar va xizmatlarning davlat tomonidan tartibga solinadigan baholari va tariflariga, shuningdek nodavlat korxonalar va tashkilotlarning ayrim tovarlari va xizmatlari baholariga;

4) O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Qoraqalpoviston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, tegishli hokimiyatlarning xalq ta'limi boshqarmalari va bo'limlari rahbarlarining o'zlari tasarrufidagi maktablarning kelgusi yil uchun xarajatlar smetalarini tuzish masalalari bo'yicha ko'rsatmalari va takliflariga, agarda ular qonun hujjatlariga zid bo'lmasa, jumladan;

- xarajatlar smetasiga ish haqi uchun mablag'lar o'rnatilgan ish haqi tizimi, ish haqi stavkalari va ularga qo'shimcha to'lovlardan, amaldagi namunaviy shtatlar va normativlarga rioya qilishdan kelib chiqib, foydalaniladi;

- o'qituvchilarning ish haqi uchun kerakli mablag'lar summalarini aniqlashda, qonun hujjatlarida belgilangan ish haqi stavkalaridan hamda o'quv yuklamalariga muvofiq tuzilgan o'quv rejasi, tasdiqlangan tarifikatsiyaga muvofiq daftar tekshirish va sinf rahbarligi uchun qo'shimcha haq to'lash me'yorlaridan kelib chiqiladi;

- xodimlarning ish haqi summasiga nisbatan davlat ijtimoiy sugʻurtasiga oʻtkaziladigan summalar hajmi, Oʻzbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan barcha ish haqi summasiga nisbatan hisoblanadigan, qonun hujjatlariga muvofiq davlat ijtimoiy sugʻurta badallari hisoblanadigan sugʻurta toʻlovlari tariflariga asosan xarajatlar smetasiga kiritiladi;

- kommunal xizmatlar uchun xoʻjalik xarajatlari kommunal xizmatlar uchun amaldagi baho va tariflar asosida hisoblanadi;

- bolalar va boshqa ijtimoiy-madaniy tashkilotlarda ovqatlanishga ketadigan xarajatlar summasi qonun hujjatlari bilan tasdiqlangan tashkilotlarning ayrim turlari uchun belgilangan ovqatlanish meʼyorlari ovqatlanish kunining sonidan kelib chiqib hisoblanadi;

- dori-darmonlarga ketadigan xarajatlar summasi qonun xujjatlari bilan belgilangan pul xarajatlari meʼyoriga qarab hisoblab chiqiladi;

- ijtimoiy-madaniy tashkilotlarni ayrim guruhi uchun kiyim-kechak poyafzal, choʻyshab, yotish anjomlari va boshqa yumshoq buyumlar sotib olishga ketadigan xarajatlar, moddiy taʼminotning amaldagi meʼyorlari asosida, lekin ajratilgan mablagʻlar doirasida, hisoblanadi.

Yuridik shaxs maqomiga ega boʻlgan va xarajatlarning byudjet mablagʻlaridan tashqari qoplashning boshqa manbalariga ega boʻlgan maktablar ham qoʻshimcha daromadlar va ulardan kelib chiqadigan xarajatlar uchun xarajatlar smetasini tuzadilar. Bu xarajat smetalari boʻyicha daromadlar qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarga qarab aniqlanadi.

Maktabning xarajatlar smetasi uch nusxada tuziladi va maktabning direktori hamda bosh buxgalteri tomonidan imzolanadi, smetaning birinchi nusxasi

maktabda, ikkinchi nusxasi tegishli mahalliy moliya organida qoladi va uchinchi nusxasi yuqori xalq ta'limi organiga taqdim etiladi.

Kelgusi yilga ochilishi kerak bo'lgan maktablarni tashkil etish, saqlash bo'yicha xarajatlar smetasi xokimiyatlarning tegishli xalq ta'lim organlari tomonidan har bir yangi tashkil etilayotgan maktabga alohida holda, ish haqining o'rtacha stavkasi va faoliyat ko'rsatayotgan tegishli maktablarda mavjud bo'lgan xarajatlarning o'rtacha me'yorlaridan kelib chiqdan holda tuziladi. Bunda yangi maktablarni saqlash uchun ketadigan xarajatlar ushbu maktablar ochilishi belgilangan muddatlardan kelib chiqib, ushbu muddat to'g'ri keladigan yilning qismiga hisoblanadi. Kelgusi yilda maktablarning o'qituvchilari uchun ish haqi bo'yicha umumiy xarajatlar smetalarini tuzishda smetaga ilova va o'qituvchi hamda maktablarning boshqa xodimlari uchun tegishli xalq ta'limi organi smetasi bo'yicha nazarda tutilgan ish haqi fondining hisob-kitobi to'ldiriladi.

Yilning birinchi qismi uchun (yanvar-avgust) oylik ish haqi fondi yil boshiga tegishli xalq ta'limi organi tomonidan tasdiqlangan o'qituvchilarning tarifikatsiya ro'yxatiga to'g'ri kelgan miqdorda qabul qilinadi. Yilning qolgan (sentyabr-dekabr) qismiga o'qituvchilarning oylik ish haqi fondi rejalashtirilgan sinflar soni va shu davrga o'qituvchilar ish haqi stavkasi, tegishli xalq ta'limi organlari tomonidan o'quv yil boshiga o'qituvchilarning tasdiqlangan tarifikatsiya ro'yxati bo'yicha belgilangan (1—4, 5—9,) sinflarning guruhleri bo'yicha ish haqining o'rtacha stavkasi doirasida hisoblanadi.

Maktablar O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetida turuvchi maktablarga, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetida turuvchi maktablarga, viloyatlar byudjetida turuvchi maktablarga, shaharlar byudjetida turuvchi maktablarga va tumanlar byudjetida turuvchi maktablarga bo'linishi

sababli ularni xarajatlar smetalarini ham muayyan maktab qaysi byudjetda tursa, shu byudjetni ijrosi bilan shug'ullanuvchi tegishli moliya organi ko'rib chiqishga qabul qiladi.

Maktablar uchun tegishli moliya organi bo'lib:

O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetida turuvchi maktablar uchun - *O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;*

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetida turuvchi maktablar uchun - *Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi;*

Viloyatlar byudjetida turuvchi maktablar uchun - *tegishli viloyat moliya boshqarmasi;*

Shaharlar byudjetida turuvchi maktablar uchun - *tegishli shahar moliya bo'limi;*

Tumanlar byudjetida turuvchi maktablar uchun - *tegishli tuman moliya bo'limi* hisoblanadi.

Maktablar o'zlarining xarajatlar smetasini odatda to'g'ridan-to'g'ri tegishli moliya organiga emas, balki o'zining yuqori xalq ta'limi organiga taqdim etadi.

Tegishli xalq ta'limi organlari o'z tasarrufida bo'lgan maktablardan kelib tushgan umumiy va alohida xarajatlar smetalarini quyidagi tartibda ko'rib chiqadi:

- O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, shahar, tuman byudjeti loyihasi tegishli idoralarda ko'rib chiqilishi bilan tegishli moliya organlariga O'zbekiston Respublikasining tegishli vazirlik va idoralar bo'yicha xarajatlarini qoplashga belgilangan mablag'larning summasini,

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat, shahar, tuman bo‘yicha esa jami tarmoqlar bo‘yicha, byudjetni tasdiqlashda qabul qilingan summalarni, ish xaqi, ish haqiga ajratma, kapital qo‘yilmalar va O‘zbekiston Respublikasi Xukumati tomonidan byudjetni tasdiqlash paytida eng ko‘p miqdorlari belgilanadigan boshqa xarajatlar haqida zudlik bilan xabar qiladilar;

- xalq ta’limi organlari tegishli moliya organlari tomonidan xabar qilingan tegishli tarmoqlar bo‘yicha mablag‘lar doirasida, maktablarning bo‘ysunuvidan va xarajat me‘yorlaridan kelib chiqib, o‘z tasarrufidagi tashkilotlarga tegishli byudjetlar bo‘yicha (respublika, viloyat (Toshkent shahar) byudjeti va viloyat bo‘ysunuvidagi tuman va shahar, shuningdek shahar bo‘ysunuvidagi tumanlar byudjetlari bo‘yicha) mablag‘larining hajmini alohida etkazadi.

- xalq ta’limi organlarining rahbarlari o‘zlari tasarrufidagi maktabning xarajatlar smetasi loyihalarini ko‘rib chiqadilar va xarajatlarni tashkilotlar smetalari bo‘yicha tegishli byudjetlarda turganlar uchun belgilangan mablag‘lar doirasida kabul qiladilar.

Bir vaqtning o‘zida xarajatlar smetasi ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari hisoblanadi hamda ularni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish ko‘rsatkichlariga mosligi tekshiriladi. Tegishli xalq ta’limi organlari belgilangan yillik byudjetning choraklar bo‘yicha taksimotiga amal qilgan holda, xajmlari byudjet bilan har bir chorakka alohida belgilangan xarajatlar smetalarining umumiy summasi, shuningdek ish haki, ish haqiga ajratmalar, kapital qo‘yilmalar va boshqa turdagi xarajatlar summasini byudjetning tasdiqlangan choraklar bo‘yicha taksimotiga to‘g‘ri kelishini ta’minlaydi. Shunga muvofiq, xarajatlar smetasi blankasining «Tasdiqlangan» grafasida «I, II, III va IV choraklar» satrlari to‘ldiriladi.

Maktabning xarajatlar smetasida tasdiqdangan xarajatlarning yillik va choraklik summolari maktab tomonidan taqdim etilgan smetaning ikkinchi nusxasiiga o'tkaziladi.

Maktabning xarajatlar smetasini tegishli xalq ta'limi organlari tomonidan tasdiqlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, qarori yoki tegishli viloyat, shahar, tuman xalq deputatlari Kengashlari sessiyalarining tegishli byudjetda turuvchi tashkilotlar uchun xarajatlar tasnifi moddalari bo'yicha bo'lingan byudjet haqida qaror kabul qilgan kundan boshlab ikki hafta ichida (ro'yxatdan o'tkazish esa 40 kun muddat ichida) amalga oshiriladi va maktabning xarajatlar smetalarini tasdiqlagan yuqori xalq ta'limi organi rahbari (yoki o'rinbosari) imzosi bilan, tasdiqdangan kuni ko'rsatilgan holda hamda bu yuqori xalq ta'limi organining muhri xarajatlar smetasining barcha nusxalariga bosilib, bir paytning o'zida smeta xarajatlari bo'yicha umumiy summasi yuqori o'ng burchagida ko'rsatilgan shtatdagi va shtatdan tashqari xodimlarning ish haqi fondining umumiy summasi ajratib ko'rsatilgan holda rasmiylashtiriladi

Shu bilan bir vaqtda, tarmoqlar, kontingentlar va shtatlar bo'yicha umumlashtirilgan ko'rsatkichlar ham taqdim etiladi.

Umumiy xarajat smetalari tasdiqlanganidan so'ng tegishli xalq ta'limi organi (yoki markazlashtirilgan buxgalteriya) bu xarajatlar smetalari bo'yicha moliyalashtiriladigan maktablarga quyidagilarni xabar qiladilar:

1) shtatlar va maktab xodimlari ish xaqi stavkalari haqidagi ma'lumotni;

2) ishlab chiqarish ko'rsatkichlari (o'quvchilar, sinflar, bolalar, joylar, joy-kun, bola-kun va h.k.), bepul yoki imtiyozli ovqat oluvchi

o'quvchilarning soni, birinchi sinf o'quvchilarining soni, aholining kam ta'minlangan qismidan bepul qishqi kiyim va poyafzal ajratiladigan boshlang'ich sinf o'quvchilarining soni va boshqa tarmoq ko'rsatkichlarini;

3) ovqatlanishga, dori-darmonlarga ketadigan xarajatlarning me'yorini;

4) maktabni xo'jalik va davolash maqsadlari uchun rejalashtirilayotgan yilga ajratiladigan tegishli natural ko'rsatkichlarini;

5) byudjet mablag'lari doirasida sotib olishga muljallangan inventarlar va asbob-uskunalar ro'yxatini;

6) kapital ta'mirlash bo'yicha asosiy ishlar ro'yxatini;

7) tegishli moliya organlari tomonidan, yuqori moliya organlari bilan kelishilgan holda, belgilangan maktablarga xabar beriladigan ko'rsatkichlar va shakllar ro'yxatini.

Maktablarning belgilangan tartibda tasdiqdangan xarajatlar smetasi va shtat jadvallari, shuningdek amaldagi smetalarga va shtat jadvallariga kiritiladigan o'gartirishlar moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng amalga kiritiladi.

Yuqorida aytilanidek, maktabning shtat jadvallari va xarajatlar smetalarini ro'yxatdan o'tkazish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi. Tegishli bank muassasalari maktablarning ish haqiga va xarajatlariga mablag'lar berishni, ularning xarajatlar smetasini tegishli moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng amalga oshiradilar.

Maktab xarajatlar smetasining ijrosi bevosita ushbu maktabning direktori tomonidan amalga oshiriladi.

Maktabda o'qituvchilarni tarifikatsiyalash.

«Umumta'lim muassasalari o'qituvchilarini tarifikatsiyalash va ish haqini hisoblash tartibi bo'yicha metodik ko'rsatmalar»iga ko'ra o'qituvchilar tarifikatsiyasi har yili 1 sentyabr holatida sinflar, guruhlar to'ldirilgan hamda o'quv yuklamasi taqsimlangandan so'ng amalga oshiriladi⁷. Tarifikatsiya bo'yicha ishlar maktab direktori buyrug'i bilan tashkil etiladigan tarifikatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Bu ishlarni o'tkazishda umumta'lim muassasasi direktori, direktorning o'quv va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari hamda ushbu muassasa kasaba uyushmasi raisi ishtirok etadi.

Tarifikatsiya komissiyasi o'quv rejasi asosida maktabdagi o'qituvchilarning sonini, ularning o'qitadigan fani bo'yicha mutaxassisligini, shuningdek, pedagogik tajribasini va toifasini hisobga olgan holda har bir o'qituvchiga o'quv va pedagogik yuklamalarini taqsimlashni amalga oshiradi. O'qituvchining umumiy yuklamasi o'quv va pedagogik yuklamadan iborat bo'lib, u bir yilda 1548 soatni tashkil etadi. Pedagogik yuklama belgilangan o'quv yuklamasidan proportsional ravishda boshlang'ich sinflarda 1,0 va yuqori sinflarda 0,8 koeffitsientlarni qo'llash orqali belgilanadi. Reja bo'yicha o'qituvchining umumiy bir oylik yuklamasi 154,8 soatni tashkil qiladi. Haftalar soni bir oyda 4,3 hafta deb qabul qilingan. O'qituvchining 1,0 stavkasi uchun haftalik umumiy yuklamasi 36 soatni (boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'quv yuklamasi 18 soat va pedagogik yuklamasi 18 soat; yuqori sinf o'qituvchisining o'quv yuklamasi 20 va pedagogik yuklamasi 16 soat) tashkil qiladi. Lavoimlar qo'shib olib borilganda yoki xodim asosiy vazifasi bilan bir vaqtda

⁷ O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 2006 yil 5 yanvardagi 03 - 01/23-sonli qo'shma buyrug'i bilan tasdiqlangan, Tarifikatsiya.

vaqtincha ish joyida bo'lmagan o'qituvchining vazifalarini bajarganda uning oylik, chorak va yillik yuklamalari bajarilgan ishlari hisobiga oshadi. Vaqtincha ishda bo'lmagan o'qituvchining vazifalarini o'rindoshlik asosida bajarganda u pedagogik yuklamani barcha komponentlar bo'yicha to'liq hajmda bajarishi shart.

Boshqa maktablardan o'rindoshlik asosida jalb etilgan pedagog va mutaxassislar mehnatiga hamda maktabning rahbar xodimlariga asosiy lavozimini haftasiga 10 soatgacha o'qituvchilik lavozimi bilan qo'shib olib borib o'quv yuklamasini bajarishi mumkin va ularga soatbay ish haqi hisoblanadi. O'rindoshlik asosida o'qituvchilik lavozimida ishlovchi xodimlarga to'lanadigan soatbay haq bazaviy tarif stavkasini o'quv komponentidagi soatlarga 0,8 koeffitsientni qo'llab aniqlanadi.

O'rindoshlik asosida ishlovchi o'qituvchi o'ziga yuklatilgan pedagogik yuklamalarini ayrim komponentlarini bajarishdan ozod qilinishi mumkin. Bajarilishi majburiy bo'lmagan yillik yuklamaning ayrim komponentlari mehnat shartnomasida aniq belgilangan bo'ladi. Tarifikatsiya ro'yxatlari ma'lumot va malaka toifalarini berish haqidagi hujjatlarning tasdiqlangan nusxasi, qonunchilikda ko'zda tutilgan ustama va qo'shimcha to'lovlar joriy etilishi haqidagi buyruq nusxasi bilan birga muayyan maktab bo'ysunuvchi tegishli yuqori halq ta'limi organiga taqdim etiladi.

Maktablar o'qituvchilarining tarifikatsiya ro'yxati:

- tuman (shahar) byudjetida turuvchi maktablar bo'yicha - tegishli tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi mudiri tomonidan;
- viloyat byudjetida turuvchi maktablar bo'yicha - tegishli viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i tomonidan;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetida turuvchi maktablar bo‘yicha - Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’lim vazirligi tomonidan;

- O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetida turuvchi maktablar bo‘yicha - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

Maktab direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari har bir o‘qituvchining ishlagan vaqti haqidagi ma’lumotni o‘z ichiga oluvchi tabelni to‘ldiradi, bunda umumiy ishlagan vaqt, shuningdek, o‘quv jarayoni va boshqa pedagogik jarayonga sarf etilgan vaqt aks ettiriladi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq rasmiylashtirilgan o‘qituvchining individual ish rejasiga ko‘ra bajarilmagan ish soatlari tabelga kiritilmaydi hamda ushbu soatlar uchun haq to‘lanmaydi. Maktab direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari imzolagan ish vaqtini hisoblash tabellari maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi va ish haqini o‘z vaqtida hisoblash va to‘lashni ta’minlash uchun maktab buxgalteriyasiga taqdim etiladi. Ish vaqtini hisoblash tabellarini maktab buxgalteriyasiga taqdim etishning aniq muddatlari direktor buyrug‘i bilan belgilanadi.

Maktab o‘qituvchilariga ish haqi maktab buxgalteriyasiga taqdim etiladigan tarifikatsiya ro‘yxatlari, maktab xodimlarini ishga qabul qilish haqidagi buyruqdan ko‘chirma yoki buyruq nusxasi, ish vaqtini hisoblash tabellari, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik varaqalari va boshqa boshlang‘ich hujjatlar asosida hisoblanadi:

Umumta’lim muassasalari o‘qituvchilarining bazaviy tarif stavkalaridagi o‘zgartirishlar ilgari taqdim etilgan tarifikatsiya ro‘yxatlariga nisbatan hukumatning ish haqini oshirish haqidagi qarori chiqqanda, shuningdek, attestatsiya natijalari bo‘yicha malaka toifasi o‘zgarganda amalga oshiriladi. Bunday hollarda tarifikatsiya ro‘yxatlari qaytadan tuziladi va maktab buxgalteriyasiga yoki markazlashtirilgan buxgalteriyaga qayta taqdim etiladi.

II -Bob. Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali tuzilish hisobining amaliy jihatlari

II.1 Byudjet tashkilotlaridan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalarni g'aznachilik bo'limlariga taqdim etish

Byudjetdan mablaj oluvchilar byudjet xarajatlarini amalga oshirish uchun g'aznachilik bo'linmalariga quyidagilarni:

byudjet mablajlari bo'yicha:

doimiy xarajatlar smetalari moliya organlarida ro'yxatga olinguniga qadar - birinchi chorak uchun oylar kesimida moliya bo'limlarida ro'yxatga olingan vaqtinchalik xarajatlar smetalari nusxalarini;

doimiy xarajatlar smetalari moliya organlarida ro'yxatga olingandan so'ng - moliya organlarida ro'yxatga olingan, oylar kesimida doimiy xarajatlar smetalarni;

byudjetdan tasheari mablajlar bo'yicha

moliya organlarida ro'yxatga olingan, byudjetdan tashqari mablajlarning kelib tushishi va ishlatilishining cheklanishi oylar kesimida ko'rsatilgan vaqtinchalik va aniqlangan xarajatlar smetalari nusxalarini taqdim etadilar

Byudjetdan mablag' oluvchilar byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalari nusxalarini va ularga ilovalarni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maikamasi Zaxira jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi zaxira jamg'armasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimligi zaxira jamg'armalari mablag'lari hisobiga va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalarni, ular moliya organlarida o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olinganidan so'ng, g'aznachilik bo'linmalariga taqdim qiladilar.

Kapital qurilish ob'ektlari bo'yicha kapital qurilish buyurtmachilari g'aznachilik bo'linmalariga tegishli moliya organlari bilan kelishilgan,

tasdiqlangan qurilishlarning manzilli ro'yxati va qurilishlarning titul ro'yxati asosida tuzilgan xarajatlarning oylar kesimidagi yoyilmasini taqdim etadilar.

Kapital qurilish ob'ektlari bo'yicha xarajatlarning oylar kesimidagi yoyilmasiga aniqliklar qurilishlarning manzilli va titul ro'yxatlarining aniqlanishi asosida kiritiladi.

G'aznachilik bo'linmalari byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjet tasnifining tegishli bo'lim, bob va paragraflari bo'yicha xarajatlarini quyidagi hollarda to'xtatish quyidagiga ega:

Byudjetdan mablag' oluvchilarning tegishli moliya organlariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan hisobotlarni taqdim etmagan hollarda (moliya organlari tomonidan g'aznachilik bo'linmalarini byudjetdan mablag' oluvchilarning hisobot topshirmaganligi to'g'risidagi yozma bildirishnomasi bo'yicha), tegishli byudjetdan mablag' oluvchilarning rahbarlarini xabardor qilgan holda;

Tegishli moliya organlari tomonidan tegishli byudjetlarning vaqtinchalik va doimiy daromadlar va xarajatlar yoyilmalari belgilangan muddatlarda taqdim etilmaganda - ular taqdim etilgunga qadar muddatga;

moliya organlari tomonidan ajratilgan byudjet mablag'larini o'zgartirishga taqdimnoma kelishish uchun taqdim qilinganda - ular tomonidan taqdimnomalar asosida tayyorlangan smetalarga tegishli barcha o'zgartirishlarni va ularning o'zaro muvaffaqiyatli solishtirishlari yoki tegishli moliya organining kiritilayotgan o'zgartirishlarni rad etganligi to'g'risidagi yozma xabarnomasi taqdim etilgunga qadar muddatga;

Tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlarining yoyilmasiga, byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalariga, qurilishlarning manzilli va titul ro'yxatlarga o'zgartirishlarning kiritilishi moliya organlari tomonidan

byudjetdan mablag' oluvchilar va buyurtmachilar bilan birgalikda, ushbu o'zgartirishlar uchun so'rovnomalar va taqdimnomalar tegishli g'aznachilik bo'linmalari bilan kelishilgandan so'ng amalga oshiriladi.

Ajratilgan byudjet mablag'lari qoldiqlari summalarining qabul qilingan yuridik va moliyaviy majburiyatlar, shuningdek amalga oshirilgan kassa xarajatlarining ajratilgan byudjet mablajlari qoldiqlari summalaridan oshishiga olib keladigan miqdorlarda byudjet mablaqlarining kamaytirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Tegishli byudjet mablag'larining taqsimlovchilari (oluvchilari) tashabbusi bilan byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalariga o'zgartirish kiritilgan hollarda, ular tomonidan o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan so'rovnomalar imzolash uchun g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etiladi.

So'rovnomada ko'rsatilgan xarajatlar turlari bo'yicha ajratilgan byudjet mablag'lariga taklif qilinayotgan o'zgartirishlar kiritishning imkoni mavjud bo'lganda, g'aznachilik bo'linmalari G'aznachilik dasturiy majmuida ushbu byudjet mablag'larini taqsimlovchilar (oluvchilar)ning shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridagi tegishli xarajatlar moddalari bo'yicha keyingi yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va kassa xarajatlarini amalga oshirishni to'xtatib qo'yadi.

G'aznachilik dasturiy majmuida keyingi yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va kassa xarajatlarini amalga oshirish to'xtatib qo'yilgandan so'ng, byudjetdan mablag' oluvchilarning so'rovnomasi tegishli g'aznachilik bo'linmalarining vakolatli xodimlari tomonidan imzolanadi va muhiri bilan tasdiqlanadi.

Imzolangan va muhir bilan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi so'rovnoma, uni g'aznachilik bo'linmasiga taqdim qilingan kunning keyingi ish kunidan kechikmagan muddatda, byudjet mablag'ining taqsimlovchiga keyinchalik uni tegishli moliya organlariga taqdim etish uchun qaytariladi.

Yuridik va moliyaviy majburiyatlar bilan band bo'lmagan byudjet mablag'lari mavjud bo'lmaganda va byudjet mablag'lariga so'rovnomada ko'rsatilgan xarajat turlari bo'yicha taklif qilinayotgan o'zgartirishlar kiritishning imkoni mavjud bo'lmagan hollarda, g'aznachilik bo'linmalari so'rovnomani qaytarish sabablarini ko'rsatgan holda byudjetdan mablag' oluvchilarga qaytaradilar.

Byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalariga tegishli moliya organlari tashabbusi bilan o'zgartirishlar kiritilgan hollarda, ular tomonidan o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan taqdimnoma yoki ma'lumotnoma-bildirishnoma loyihalari g'aznachilik bo'linmalariga imzolash uchun taqdim etiladi.

G'aznachilik bo'linmalari taqdimnomada taklif qilinayotgan o'zgartirishlarni amalga oshirish imkonini, taklif qilinayotgan o'zgartirishlar summasini tegishli byudjet mablag'larining taqsimlovchilari bo'yicha yuridik va moliyaviy majburiyatlar, shuningdek kassa xarajatlari bilan band qilinmagan ajratilgan byudjet mablag'lari qoldiqlari bilan solishtirish orqali amalga oshiradi.

G'aznachilik dasturiy majmuida keyingi yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va kassa xarajatlarini amalga oshirish to'xtatib qo'yilgandan

so'ng, moliya organining taqdimnomasi tegishli g'aznachilik bo'linmasining vakolatli xodimlari tomonidan imzolanadi va uning muhiri bilan tasdiqlanadi.

Imzolangan va muhir bilan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi tasdiqnoma, u g'aznachilik bo'linmasiga taqdim qilingan kunning keyingi ish kunidan kechikmagan muddatda, tegishli moliya organiga qaytariladi.

Moliya organlari tomonidan qonun hujjatlari asosida byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalariga o'zgartirishlar kiritilgan hollarda, g'aznachilik bo'linmalariga 11-sonli shaklda ma'lumotnoma-bildirishnoma loyihalari taqdim qilinadi (respublika byudjeti bo'yicha - Moliya vazirligining tarmoq boshqarmalari O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi G'aznachiligiga 17-sonli shaklda ma'lumotnoma-bildirishnoma loyihasini taqdim etadi).

G'aznachilik bo'linmalari taklif qilinayotgan o'zgartirishlarni amalga oshirish imkonini tekshirishni, taklif qilinayotgan o'zgartirishlar summasini yuridik va moliyaviy majburiyatlar, shuningdek tegishli byudjetda turuvchi, barcha byudjet mablag'larini taqsimlovchilar (oluvchilar)ning tegishli bo'lim, bob, paragraf va xarajatlar moddalari bo'yicha kassa xarajatlari bilan band qilinmagan ajratilgan byudjet mablag'lari qoldiqlari bilan solishtirish orqali amalga oshiradilar.

Ma'lumotnoma-bildirishnomada ko'rsatilgan ajratilgan byudjet mablag'lari limitlariga taklif qilinayotgan o'zgartirishlarni kiritish imkoni mavjud bo'lganda, g'aznachilik bo'linmalari:

G'aznachilik dasturiy majmuida tegishli byudjet mablag'larini taqsimlovchilar (oluvchilar)ning tegishli bo'lim, bob, paragraf va xarajatlar

moddalari bo'yicha keyingi yuridik va moliyaviy majburiyatlar olishni va kassa xarajatlarini amalga oshirishni to'xtatib qo'yadi;

ma'lumotnoma-bildirishnoma loyihasi taqdim qilingan kunning keyingi ish kunidan kechikmagan muddatda ijobiy xulosa tuzadi va uni tegishli moliya organlariga taqdim etadi.

Yuridik va moliyaviy majburiyatlar bilan band bo'lmagan ajratilgan byudjet mablag'lari mavjud bo'lmagan hollarda va so'rovnomada ko'rsatilgan xarajat turlari bo'yicha ajratilgan byudjet mablag'lari limitlariga taklif qilinayotgan o'zgartirishlar kiritishning imkoni mavjud bo'lmaganda, g'aznachilik bo'linmalari, ma'lumotnoma-bildirishnoma loyihasi taqdim qilingan kunning keyingi ish kunidan kechikmagan muddatda, unga o'zgartirishlar kiritish imkoni yo'qligi sabablari ko'rsatilgan holda xulosa tuzadi.

Ma'lumotnoma-bildirishnomaga salbiy xulosa olingandan so'ng, tegishli moliya organlari ularni o'zgartirish yoki bekor qilish bo'yicha choralarni ko'radilar.

Yuridik va moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish va kassa xarajatlarini amalga oshirishni to'xtatib qo'yishni yechish, g'aznachilik bo'linmalari tomonidan moliya organlari tegishli ma'lumotnoma-bildirishnomalar va ularni o'zaro solishtirish asosida tayyorlangan byudjet mablag'lari taqsimlovchilarning xarajatlar smetalariga o'zgartirishlar ro'yxatining barcha nusxalarini taqdim qilganidan keyin amalga oshiriladi.

II.2.Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali ijrosining xisobi.

Qoraqalpogiston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar mablagʻlari tasdiqlangan byudjet doirasida xarajat qilinadi. Qoraqalpogiston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar xarajatlari tasdiqlangan byudjetdan mablagʻlar ajratish doirasida quyidagicha amalga oshiriladi:

- ❖ Qoraqalpogʻiston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlarining joriy xarajatlari shaklida;
- ❖ joriy byudjet trasfertlari shaklida;
- ❖ kapital xarajatlar shaklida;
- ❖ asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bogʻliq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarishga;
- ❖ davlat ehtiyojlari uchun erga boʻlgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olishga;
- ❖ qonun xujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xarajatlar shaklida.

Qoraqalpogiston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlardan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda quyidagilarga moʻljallangan xarajatlar moliyalashtiriladi:

- fan, taʼlim, madaniyat, sogʻliqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport;
- ijtimoiy taʼminot;
- aholini ijtimoiy himoyalash; Qoraqalpogʻiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini taʼminlash;
- iqtisodiyot turi tarmoqlarining Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri byudjet tashkilotlarini saqlash; qonun hujjatlariga

muvoqiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va tadbirlarni amalga oshirish;

- qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

Aytib o'tish kerakki, alohida mahalliy byudjetlarning xarajatlar tarkibi bir xil bo'lmaydi va shu mintaqadagi turli darajada bo'lgan xo'jalik va idoralarning hajmiga bog'liq bo'ladi. Davlat byudjetining turlarida hajmda moliyalashtiriladigan birinchi navbatdagi xarajatlarga ish hahi, ish haqidan ajratmalar, stipendiyalar, nafaqalar, ovqatlanish va dori-darmonlarni sotib olish uchun sarflanadigan xarajatlar kiritildi.

Davlat byudjeti xarajatlarining vazifa jihatidan tasnifi davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimiyat organlari, shuningdek, boshqa byudjet tashkilotlari tomonidan ijro etiladigan asosiy vazifalar bo'yicha xarajatlarni guruhlashdan iborat bo'ladi. Biz byudjet tashkiloti deganda zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun davlat byudjetidan mablag' ajratish nazarda tutilgan va bu mablag' moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, davlat tashkilotini tushunamiz.

Davlat byudjeti xarajatlarining tashkiliy tasnifi byudjetdan ajratiladigan mablag'lar ularni bevosita oluvchilar o'rtasida taqsimlanishini aks ettiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va tadbirlar turlari bo'yicha xarajatlarni guruhlashdan iborat bo'ladi.

Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi to'lovlarning iqtisodiy vazifasi va turlari bo'yicha xarajatlarni guruhlashdan iborat bo'ladi.

Davlat byudjetining ijrosini hamda byudjet xarajatlarini to'liq va o'z vaqtida moliyalashtirishni ta'minlash va byudjet mablag'larining maqsadli ishlatilishi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish maqsadida

O'zbekiston
Respublikasi Moliya vazirligining 2000 yil 3 yanvardagi «Byudjetda

ko'zda tutilgan xarajatlarni to'liq va o'z vaqtida moliyalashtirishni ta'minlash va byudjet mablag'larining maqsadli ishlatilishi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish maqsadida» buyrug'i chiqdi. Bu buyruqqa asosan, birinchi navbatdagi va ustuvor xarajatlarni amalga oshirishda quyidagi ketma-ketlik belgilab qo'yilgan:

- ◆ ish haqi ijtimoiy sug'urta to'lovlari bilan birgalikda stipendiyalar;
- ◆ 16 yoshgacha bolasi bo'lgan oilalarga va 2 yoshgacha bolasi bo'lgan onalarga bola tarbiyasi uchun nafaqa hamda kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam;
- ◆ byudjet muassasalari tomonidan belgilangan kontengendagi bolalar, bemorlar va qariyalar uchun oziq-ovqat mahsulotlari va dori-darmonlar sotib olish.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari boshliqlari, shahar va tuman moliya bo'limlari mudirlarinng zimmasiga byudjet xarajatlarini moliyalashtirishning yangi tartibiga binoan quyidagilar yuklatilgan:

- tasdiqlangan byudjet parametrlari va xarajatlar smetalari doirasida birinchi va ikkinchi guruhlariga kiritilgan to'lovlarni birinchi navbatda va to'liq moliyalashtirishni ta'minlash;

- uchinchi guruh bo'yicha kapital qo'yilmalar xarajatlarini investitsiya dasturiga kiritilgan ob'ektlarning manzilli ro'yxatlari bo'yicha o'rnatilgan moliyalashtirish rejalari doirasida amalga oshirish;

- xarajatlarning to'rtinchi guruhiga kiritilgan ustuvor to'lovlar, oziq -ovqat va dori-darmonlar sotib olish xarajatlarini birinchi va ikkinchi guruh to'lovlari to'liq amalga oshirilgandan keyingina moliyalashtirish;

- boshqa moddalar bo'yicha xarajatlarni (kapital qo'yilmalar, safar va o'quv xarajatlari, kommunal xizmatlar, xo'jalik xarajatlari, yumshoq va boshqa jihozlar sotib olish, kapital ta'mirlash va boshqa xarajatlar) yuqoridagi to'lovlar to'liq amalga oshirilgandan so'ng daromadlar tushumiga qarab moliyalashtirish;

- xizmat kursatuvchi tijorat banklari tomonidan xarajatlarni naqd pul bilan ta'minlashning belgilangan muddatlari buzilgan taqdirda, uch kun ichida tijorat banklariga nisbatan xo'jalik sudlariga byudjetga keltirilgan zararni qoplash uchun belgilangan tartibda da'vo arizalari kiritish;

-huquqiy shaxs maqomi berilgan byudjet tashkilotlarining faoliyatlarini mustaqil ravishda amalga oshirishlari uchun kerakli tashkiliy-iqtisodiy choralar ko'rish.

Byudjet mablag'laridan foydalanishni nazorat qilish byudjetdan mablag' bilan ta'minlashning belgilangan me'yorlari va limitlari, davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining amaldagi tasnifnomasi, tegishli byudjetlarning tasdiqlangan parametrlari, tasdiqlangan shtat jadvallari, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan byudjet tashkilotlari xarajatlari smetasi, byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibiga va boshqa qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Smetalar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining amaldagi tasnifnomasiga muvofiq xarajatlarning to'liq yoyilnomasi ilova qilingan holda xarajatlarning to'rt guruhi bo'yicha tuziladi. Ilova smetaning ajralmas qismi hisoblanadi, smetaning prognoz hisob-kitoblarini asoslash uchun xizmat qiladi va hisobot maqsadlari uchun foydalaniladi. Yangi tartibga muvofiq byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash me'yorlar bo'yicha xarajatlarning quyidagi guruhlarini mablag' bilan ta'minlash usulida amalga oshiriladi:

- I. Ish haqi va unga tengashtirilgan to'lovlar, stipendiyalar, pensiyalar, moddiy yordam.
- II. Ish haqiga qo'shimchalar (25 %).
- III. Kapital qo'yilmalar (alohida davlat dasturiga kiritilgan bo'lsa).
- IV. Boshqa xarajatlar.

Mablag' bilan ta'minlash byudjet ijrosi jarayonida xarajatlar ro'yxati va smetasiga kiritiladigan o'zgarishlarni hisobga olgan holda tegishli yil uchun tasdiqlangan byudjet parametrlariga hamda byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalariga muvofiq tuzilgan byudjet xarajatlarning choraklar bo'yicha taqsimlangan yillik ro'yxatiga binoan amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarini respublika byudjetidan mablag' bilan ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligida belgilangan shakldagi xarajat jadvallari va xarajatlarning har bir guruhi bo'yicha bir satrda mablag' o'tkazish uchun to'lov qog'ozi bilan rasmiylashtiriladi. Mahalliy byudjetdan mablag' bilan ta'minlash tegishli moliya tashkilotlarida belgilangan shakldagi farmoyish bilan va xarajatlarning har bir guruhi bo'yicha bir satrda mablag' o'tkazish uchun to'lov qog'ozi bilan moliyalashtiriladi.

Byudjet mablag'lari byudjet tashkilotlari tomonidan mustaqil ravishda byudjet ijrosi jarayonida belgilangan tartibda ularga kiritilgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda tasdiqlangan xarajatlar doirasida sarflanadi. Bunda xarajatlarning I va II guruhlari, birinchi navbatda, mablag' bilan ta'minlanadi, IV guruh bo'yicha mablag'lar belgilangan limitlar doirasida quyidagi navbatga rioya qilgan holda sarflanadi:

- ovqatlantirish;
- dori-darmonlar;
- kommunal xizmatlar;
- boshqa xarajatlar;

Moliya organlari va byudjet tashkilotlarida “Byudjet tizimi to‘g‘risidagi”
va «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi Qonunga, Davlat

byudjetidan mablag‘ bilan ta‘minlanadigan muassasalarda va tashkilotlarda buxgalteriya hisobi bo‘yicha yo‘riqnomaga, Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining amaldagi tasnifnomasiga, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining boshqa me‘yoriy hujjatlariga muvofiq yuritiladi. Xorij tajribalari shuni ko‘rsatadiki, g‘aznachilik tizimi samarali ishlab turishi uchun unga asos bo‘ladigan hujjat-mamlakatning barcha yo‘nalishlar bo‘yicha xarajatlari batafsil ajratib chiqilgan rejani o‘z ichiga olgan sifatli byudjetni shakllantirishdir. Shuni ta‘kidlash zarurki, mamlakat byudjeti byudjet yili boshlangunga qadar imkoni boricha batafsil holda qabul qilinishi kerak. Aks holda, g‘aznachilikning me‘yoriy faoliyati beqarorlashuvi, uning samaradorligi pasayishi mumkin. Ikkinchidan, davlat byudjetini ijro etishning g‘aznachilik tizimida byudjetning vazifasiga oid va iqtisodiy aniq tasnifi bo‘lishi bilan birgalikda moddiy-texnikaviy bazani mustahkamlash va dasturlar jadalligini oshirish zarur.

Bizning fikrimizcha, g‘aznachilikni yagona hisob raqamini joriy etish-Davlat byudjetini g‘aznachilik ijrosidagi daromadlarni boshqarishning asosiy tamoyillaridan birini amalga oshirish natijasidir. Shuningdek, turli darajagi byudjetlarni tushumini hamda byudjet va maqsadli jamgarmalarning mablag‘larini optimal ishlatilishini kompleks nazoratini amalga oshirishni ta‘minlash imkoniyatini yaratilishidir.

Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalarining tasnifi O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasida ta‘kidlanganidek, davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalari bo‘yicha guruhlashdan iborat bo‘ladi. Ma‘lumki, biz sobiq ittifoq davrida, kapitalistik mamlakatlar byudjetidagi taqchillikni

barqarorsiz iqtisodiyot deb talqin qilar edik, lekin dunyoda hech bir davlat yo'kdirki, u yoki bu davrda byudjet taqchilligi bilan to'qnash kelmasin. Umuman olganda byudjet taqchilligi ob'ektiv narsa va uni o'z vaqtida moliyalashtirish zarur, ammo, to'g'ri kelgan uslub bilan emas balki, andozali va samarali usullar bilan moliyalashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

III-Bob. Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalining buxgalteriya hisobi xususiyatlarini takomillashtirish.

III.1. Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasi nazoratini takomillashtirish

Byudjet intizomiga rioya qilinishining nazorat etilishini ta'minlash maqsadida, xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng byudjetdan moliyalashtiriladigan vazirliklar va idoralarning rahbarlari tomonidan vazirliklar va idoralarda, shuningdek ularga bo'ysunuvchi tashkilotlarda byudjet intizomiga rioya etilishini ta'minlovchi buyruqlarni chiqarish maqsadga muvofiqdir. Buyruqlarda quyidagilar tartibga solinadi:

- byudjet intizomiga rioya qilish, xarajatlarni tasdiqlangan mablag'lar doirasida amalga oshirish.

Byudjet tashkilotlari rahbarlarining quyidagilar bo'yicha majburiyatlari bizning fikrimizcha belgilab olinishi maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

- byudjet intizomiga rioya qilinishi va nazoratini tashkil qilishni amalga oshirish;
- byudjetga keltirilgan zararni qoplash bo'yicha choralarni qo'llash;
- byudjet intizomini buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish.

Kommunal xizmatlari (issiqlik va elektr energiyasi, gaz, issiq va sovuq suv, kanalizatsiya) bo'yicha tashkilotlar uchun belgilangan pul va naturadagi limitlarga rioya qilishni ta'minlash maqsadida buyruqlarda, shuningdek quyidagilarga javobgar bo'lgan mansabdor shaxslar ko'rsatili lozim:

- kommunal xizmatlar iste'mol qilish limitlarini tasarruflaridagi tashkilotlarga etkazish;
- belgilangan limitlar doirasida kommunal xizmatlar ta'minotchilari bilan shartnomalar tuzishni ta'minlash;

- kommunal xizmatlar iste'moli hisobini o'lhagich asboblarni o'rnatish va ularning ishlashi ustidan nazorat o'rnatish;
- belgilangan limitlardan ortiqcha xarajatga yo'l qo'ygan quyi tashkilotlarning bosh hisobchilari va rahbarlarini javobgarlikka tortish yuzasidan choralar ko'rish;
- kommunal xizmatlar ta'minotchilarini, shartnomalarda ko'rsatilgan hajmlardan va mablag'lardan ortiqcha xizmat ko'rsatayotgan xizmatlar uchun haq to'lanmasligi to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish kerak;
- ko'rsatilgan buyruqlarni bajarish.

Buyruqlar bilan quyidagilar imzo qo'ydirib tanishtirilishi zarur:

- byudjetdan moliyalashtiriladigan vazirliklar va idoralar rahbarlarining o'rinbosarlari;
- ushbu vazirliklar va idoralarning reja-iqtisod xizmatlari xodimlari;
- byudjet mablag'larining sarflanishiga mas'ul bo'lgan boshqa xodimlar;
- quyi tashkilotlarning rahbarlari va bosh hisobchilari.

Tashkilotlarning smeta ijrosi bevosita ushbu tashkilot rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi. Byudjet mablag'laridan tasdiqlanmagan xarajatlar smetasi, xarajatlar smetasida ko'zda tutilmagan tadbirlar, shuningdek byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetada yoki umumlashgan smeta va alohida xarajatlar smetasida tayinlanganidan ortiq summalarda xarajat qilish taqiqlanadi.

Vazirliklar va idoralar rahbarlari, shuningdek, ular tasarrufidagi tashkilotlar byudjet mablag'lari xarajatlari hisobi va hisobotini yuritishining

belgilangan tartibi, byudjet intizomiga rioya etilishiga shaxsan javobgarligi tushuntirilishi darkor.

Byudjet mablag‘laridan foydalanilishini nazorat qilish ham byudjetdan ajratiladigan xarajatlarni mablag‘ bilan ta‘minlash jarayonida (joriy nazorat), ham byudjet tashkiloti tegishli xarajatlarni qilganidan keyin (keyinchalik nazorat qilish) amalga oshiriladi.

Byudjet mablag‘laridan foydalanilishini nazorat qilish byudjetdan mablag‘ bilan ta‘minlashning belgilangan normativlari va limitlari, davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining amaldagi tasnifnomasi, tegishli byudjetlarning tasdiqlangan parametrlari, tasdiqlangan shtat jadvallari va belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan byudjet tashkilotlari xarajatlari smetasi, mazkur tartibning qoidalari va boshqa qonun hujjatlari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

Byudjet tashkilotlari tomonidan mablag‘larning sarflanishini, shu jumladan byudjet tashkilotini rivojlantirish jamgarmasi mablag‘laridan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi, uning hududiy organlari va joylardagi moliya organlari tomonidan qonun hujjatlari bilan berilgan vakolatlarga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

Harjatlar smetalarida byudjet mablag‘larini yil choraklar (oylari) bo‘yicha tqasimoti tegishli byudjetlarning daromadlari va harajatlari chorakalar (oylar) bo‘yicha tqasimotini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Tashkilotlarni xarajatlar smetalari, shuningdek markazlashgan xarajatlar smetalari tasdiqlangandan so‘ng choraklar(oylar) kesimidagi xarajatalarni yillik u mumlashmasi byudjet tasnifining bo‘limlari kichik

bo'limlari, boblari va iqtisodiy tasnifi bo'yicha choraklarga (oylarga) bo'lingan holda aniqlanadi va tegishli moliya organiga taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va hududiy moliya organlari tomonidan yuqori moliya organlari tomonidan umumlashtirilgan xarajatlarni va alohida xarajatlar smetalarini tasdiqlangan byudjetga, shuningdek byudjetni tuzish bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq kelishi tekshirib ko'riladi.

III.2 Shtatlar jadvalining ijrosini takomillashtirish

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va tegishli hududiy moliya organlari quyidagi huquqlarga ega:

- byudjetdan mablag' bilan ta'minlanadigan tashkilotlardan byudjetni rejalashtirish, mablag' bilan ta'minlash, tegishli tashkilot tomonidan byudjet intizomiga rioya etilishini nazorat qilish uchun zarur bo'lgan hisobot ma'lumotlarini so'rash;

- kredit muassasalaridan ularning ustavlariga muvofiq byudjet tashkilotlarining operatsiyalari va hisobvaraqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish;

- tashkilotlar tomonidan mablag'lar g'ayriqonuniy sarflanganda, byudjet intizomi buzilishi hollari aniqlangan taqdirda, shuningdek ilgari ajratilgan mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi hisobotlar va boshqa belgilangan hisobot taqdim etilmaganda, bu haqda tegishli vazirliklar (idoralar), hokimliklar rahbarlarini xabardor qilgan holda tashkilotlarni byudjetdan mablag' bilan ta'minlashni cheklash va zarur hollarda to'xtatib qo'yish;

- byudjet tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini taftish qilish va tekshirish;

- aniqlangan qonunbuzishlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar bajarilishini tekshirish;

- amaldagi qonun hujjatlari buzilgan taqdirda tekshirish materiallarini huquqni muhofaza qilish organlariga berish.

- Byudjet tashkilotlarining smetalari va shtat jadvallarini tuzish hamda tasdiqlangan smetalari va shtat jadvallarini ro'yxatdan o'tkazish tartibiga rioya etilishi, ularning tasdiqlangan tasnifnomaga, xarajatlar normativlari va limitlariga muvofiqligi uchun amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq byudjet tashkilotlarining rahbarlari va bosh buxgalterlari - byudjet tashkilotlarining ishlab chiqilgan va ro'yxatdan o'tkazish uchun kiritiladigan tasdiqlangan smetalari va shtat jadvallari to'g'riligi va asoslanganligi uchun;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimining vakolatli xodimlari, shu jumladan Moliya vazirligi rahbarlari va markaziy apparati xodimlari - byudjet tashkilotlarining ro'yxatdan o'tkazilgan shtat jadvallari va yigma smetalari to'g'riligi va asoslanganligi uchun shaxsan javobgarligi oshirilishi zarur, byudjet mablag'lari hisobiga, ham mazkur tartibda nazarda tutilgan boshqa manbalar hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan tashkilotlarning rahbarlari amaldagi mehnat, ma'muriy intizomning buzilishi quyidagi xolatlarda amalga oshirilishi mumkin, jumladan:

- byudjet mablag'laridan va boshqa pul mablag'laridan noo'rin foydalanilganda;

- muddati o'tkazib yuborilgan debitorlik va kreditorlik qarzlari paydo bo'lganda;

- xarajatlar guruhlarini bo'yicha tasdiqlangan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar limitlar doirasida ish olib bormaslik natijasida;

shtat-smeta intizomi buzilishida;

xarajatlar smetasi ijrosi to'grisidagi hisobot o'z vaqtida taqdim etilmaganligi uchun shaxsan javob berishini amalga oshirish zarur.

Moliya idoralari xar yili birinchi chorakda barcha byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalarini to'g'ri tuzilishi, tasdiqlanishi va o'z vaqtida etkazilishi ustidan tekshirish o'tkazishni, doimiy ravishda quyi moliya organlari tomonidan bu ishlarni o'z vaktida va sifatli o'tkazilishini nazorat kilishni ta'minlashlari, ularga tekshirishlarni tashkil qilish va o'tkazishda amaliy yordam ko'rsatilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Malakaviy ish shu jadvallar asosida tayyorlandi

1 -jadval

Buxgalteriya operatsiyalarining mazmuni	Subschyotlar korrespondentsiyasi	
	debet	kredit
Tasdiklangan smetaga muvofiq byudjet mablag'idan asosiy vosita sotib olindi.		
Asosiy vositalar sotib olinganda: a) sotib olingan asosiy vositalarning qiymatiga (sotib olish narxi, shuningdek, etkazib berish va boshqa qo'shimcha xarajatlar)	072	15, 16 va 17-schyotlarning tegishli subschyotlari
b) Asosiy vositani dastlabki qiymati bo'yicha kirim qilinishi	01-schyotning tegishli subschyotlari	072

Asosiy vositalar begʻaraz olinganda: a) belgilangan tartibda aniqlangan bozor qiymati boʻyicha	072	262
b) etkazib berish va boshqa qoʻshimcha xarajatlar summasiga (agar amalga oshirilsa)	072	15, 16 va 17-schyotlarning tegishli subschyotlari
v) asosiy vositani dastlabki qiymati boʻyicha kirim qilinishi	01-schyotning tegishli subschyotlari	072
Tashkilotning oʻzi tomonidan, shuningdek, pudrat shartnomasiga asosan qurilgan asosiy vosita obʻektlarini kirim qilinishi	01-schyotning tegishli subschyotlari	071
Tugatilishi munosabati bilan asosiy vositalarni hisobdan chiqarilishi: a) hisoblangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi	02-schyotning tegishli subschyotlari	01-schyotning tegishli subschyotlari
b) qoldiq qiymatini hisobdan chiqarilishi	231, 241, 251, 261 yoki 271 subschyotlarning tegishlisi	01-schyotning tegishli subschyotlari
v) asosiy vositalarni tugatilishi munosabati bilan keyinchalik	06-schyotning tegishli	231, 241, 251, 261 yoki 271

foydalanishga yaroqli bo'lgan tovar- moddiy zahiralarni kirim qilinishi: - qoldiq qiymati doirasida; - qoldiq qiymatidan oshgan summaga	subschyotlari	subschyotlarning tegishlisi
	06-schyotning tegishli subschyotlari	272

(Tegishli ma'nbalardan foydalanib talaba tomonidan tayyorlandi)

2-jadval

<u>Inventarizatsiya natijasida ortiqcha chiqqan pul mablag'larini kirim qilinishi</u>		
Inventarizatsiya natijasida ortiqcha chiqqan pul mablag'larini (pul ekvivalentlaridan tashqari) kirim qilinishi	pul mablag'larini hisobga oluvchi subschyotlar	160
Ushbu pul mablag'larini byudjet daromadiga o'tkazib berilishi	160	pul mablag'larini hisobga oluvchi subschyotlar
Inventarizatsiya natijasida kamomad chiqqan pul mablag'larini (pul ekvivalentlaridan tashqari) aks ettirilishi	170	pul mablag'larini hisobga oluvchi subschyotlar
Ushbu mablag'larni kirim qilinishi	pul mablag'larini	170

	hisobga oluvchi subschyotlar	
G'azna ijrosiga o'tilmagan byudjet tashkilotlariga byudjetdan mablag'lar moliyalashtirib berilganda	100 yoki 101	232
Moliyalashtirib berilgan mablag'lar belgilangan maqsadlar uchun sarflanganda (o'tkazib berilganda)	11, 12, 15, 16, 17 va boshqa schyotlarning tegishli subschyotlari	100 yoki 101

(Tegishli ma'nbalardan foydalanib talaba tomonidan tayyorlandi.)

Xulosa va takliflar

Biz O‘zbekiston Respublikasi byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasi hamda shtatlar jadvalini tuzish va uning ijrosi hisobini tashkil etishning muhim tarkibiy qismi hisoblangan byudjet nazoratining nazariy va huquqiy asoslariga, uning zarurligi va mohiyati, turlari va usullariga tayangan holda ushbu mavzuni yoritishga harakat qildik. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng bozor talabalariga javob bera oladigan milliy byudjet tizimi shakllana boshladi. Avvalambor, byudjet tizimining huquqiy asosi bo‘lgan Konstitutsiya qabul qilindi, byudjet siyosatining institutsional asoslari bo‘lgan davlat hokimiyati idoralarining huquqiy maqomi, moliya-byudjet siyosati sohasidagi vakolatlari va vazifalari belgilab berildi. Konstitutsiyada mustahkamlangan mahalliy hokimiyatlarining mustaqilligi, moliya sohasida qat’iy o‘zgartirishlarni va davlat byudjeti ijrosining g‘aznachilik tizimini bosqichma-bosqich joriy etish yo‘nalishlarini tadqiq etishni talab qildi.

Iqtisodiyot taraqqiyotining hozirgi sharoitidan kelib chiqqan holda shtatlar jadvali, xarajatlar smetasi va byudjet nazoratini takomillashtirishning muhim xususiyatli tomonlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- ❖ Birinchidan, ijtimoiy soha xarajatlarini o‘z vaqtida va kerakli miqdorda moliyalashtirish uchun byudjet tashkilotlarida shtatlar jadvali va xarajatlar smetasini puxta ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir;
- ❖ Ikkinchidan, aholining birinchi navbatdagi ehtiyojlarini qondirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy sohalarni zarur darajada rivojlantirishni yanada jonlantirish lozim;

- ❖ Uchinchidan, ishbilarmonlar xo‘jalik faoliyatini rag‘batlantirish uchun yanada qulay shart-sharoit yaratib berish zarurdir;
- ❖ Davlat byudjeti ijrosining g‘aznachilik tizimi joriy etilishi bilan moliyaviy nazoratning dastlabki va joriy shakllarini yuritish bo‘yicha, byudjet tashkilotining bosh buxgalterlari bilan seminarlar tashqil qilish zarur;
- ❖ Byudjet mablag‘larini oluvchilarning mahsulot etkazib beruvchilar (ish bajaruvchi, xizmat ko‘rsatuvchilar) bilan tuzilayotgan shartnomalari xarajatlar smetasida nazarda tutilgan mablag‘lar doirasida tuzilishi, ta‘minlanishi, shuningdek, to‘lovlarning faqat g‘aznachilik tomonidan ro‘yxatga olingan shartnomalar bo‘yicha xarajatlar smetasida ko‘zda tutilgan mablag‘lar qoldig‘idan kelib chiqib to‘lanishi byudjet mablag‘ini oluvchilar kreditorlik qarzlari minimallashtirishga xizmat qiladi deb o‘ylaymiz;
- ❖ Yuqoridagilardan kelib chiqib, byudjet tashkilotlarida shtatlar jadvali va xarajatlar smetasini tuzishda bo‘sh o‘rinlarning bo‘lmaslagiga va iqtisod qilingan, tejalgan, ishlatilmay qolgan mablag‘larni mavjud bo‘lishiga yo‘l qo‘ygan tuzuvchilarga ma’suliyatini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Yuqori tashkilot moliya organiga xarajatlar guruhlar bo‘yicha xarajatlar yig‘ma smetasini, xarajatlarning to‘liq yoyilmasini va xarajatlar smetasiga hisob-kitoblarni ilova qilgan holda, shuningdek qaramog‘idagi barcha tashkilotlar bo‘yicha esa ro‘yhatdan o‘tkazish uchun hamma talablarga va m\belgilangan muddatda malga oshirilishi kerak.

Tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro‘yhatdan o‘tkazish paytida moliya organalari o‘z vakolatlri doirasida ortiqcha shtatlarni

yo'qotishlari lozim. Aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilganidan keyingina ro'yhatdan o'tkazishni amalga oshirish kerak.

Tashkilotlardagi xarajatlar smetasini tuzishda kompyuter texnikasi mavjud bo'lishi va har bitta jurnallar avtomatlashtirilgan tarzda yuritilishi va programmalshtirilgan bo'lishi kerak.

O'tkan yilda qolgan summani yuqori byudjetga qaytarmasdan u uchun ham alohida smeta tuzilishi va favqulotta vaziyatlar bo'p qolganda o'sha summani ishlatilish kerak. Bu byudjet tashkilotlarini har qandan noqulay vaziyatlardan olib chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2010.
2. O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 26 avgustdagi «Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi Qonuni, № 664-II sonli.
3. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrda gi «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonuni, № 158- II sonli
4. “Mehnat kodeksi” O‘z.R 1995 yil 21 dekabrda gi №161-I – son O‘zR. qonuni bilan tasdiqlangan. (2008 yil 1 martgacha bo‘lgan o‘zgarish va qo‘shimchalar bilan).
5. “Soliq kodeksi” O‘z.R 2007 yil 25 dekabrda gi №O‘RK-136 – son O‘zR. qonuni bilan tasdiqlangan
6. “Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Yo‘riqnoma O‘zR AV. tomonidan 2010 yil 22 dekabrda № 2169 - son bilan ro‘yxatdan o‘tgan.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 27 dekabrda gi PQ-594-sonli “Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevralda gi PQ-594-sonli “Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” Qarori (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 26 iyunda gi 129-sonli Qarori bilan kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 3 sentyabrda gi 414-sonli “Byudjet muassasalarini mablag‘ bilan ta'minlashni takomillashtirish

to'g'risida"gi Qarori.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 21 dekabrda 595-sonli "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi Qarori. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 2 iyulda 310-sonli «Umumta'lim maktablari o'qituvchilarining mehnatini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori.

11. Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to'g'risida Nizom Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 8 aprelda 102-son qarori.

12. "Davlat byudjetining g'azna ijrosi qoidalari" O'zR AV. tomonidan 2009 yil 16 sentyabrda № 2007 - son bilan ro'yxatdan o'tgan;

13. "Byudjetdan mablag' oluvchilarning shaxsiy hisobvaraqlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida va uning hududiy bo'limlarida yuritish qoidalari" O'zR AV. tomonidan 2007 yil 5 dekabrda №1746 son bilan ro'yxatdan o'tgan; "Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri byudjeti ijrosining moliya organlarida buxgalteriya hisobi bo'yicha yo'riqnoma" O'zR AV. tomonidan 2006 yil 10 aprelda № 1560 - son bilan ro'yxatdan o'tgan;

14. "Buxgalteriya hisobida xujjatlar va xujjatlar aylanuvi to'g'risidagi Nizom" O'z.R AV. tomonidan 2004 yil 14 yanvarda № 1297-son bilan ro'yxatdan o'tgan;

15. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 5 fevral 54-sonli Qarori).

16. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 19-sonli «Inventarizatsiyani o'tkazish va tashkil etish» milliy standarti (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1999 yil 2 noyabrda 833-son bilan ro'yxatga olingan).

17. “Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasining buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 2004 yil 10 martdagi 37,2004-26,20/1-sonli qo‘shma qarori.
18. “O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetini tuzish va ijro etish qoidalari” O‘zR AV. tomonidan 2002 yil 14 martda № 1111- son bilan ro‘yxatdan o‘tgan;
19. Byudjet tashkilotlari tomonidan yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblash, o‘tkazib berish va to‘lashni buxgalteriya hisobi va hisobotida qayd etishning vaqtincha tartibi (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2004 yil 22 apreldagi dk/03-04-04/181-sonli xati).
20. Asosiy vositalarni balans hisobidan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 29 avgustda 1401-son bilan ro‘yxatga olingan).
21. “Yuridik tashkilotlar tomonidan kassa operatsiyalarini yuritish qoidalari”. O‘z.R AV. tomonidan 1998 yil 17 dekabrda № 565-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan;
22. “Qoraqalog‘iston Respublikasi byudjetiga, maxalliy byudjetlarga byudjet ssudalarini berish va olingan byudjet ssudalarini qaytarish tartibi to‘g‘risida nizom” O‘zR AV. tomonidan 2001 yil 19 iyulda №1052- son bilan ro‘yxatdan o‘tgan.
23. “1 yanvar holati bo‘yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom” O‘z.R AV. tomonidan 2002 yil 4 dekabrda № 1192-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan.
24. “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi xizmat safarlari to‘g‘risida yo‘riqnoma” O‘z.R Moliya vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligining 2003 yildagi 24 iyuldagi 83 son va 7/12 sonli qarori bilan tasdiqlangan.

25. “Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar xodimlari O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safariga yuborilganda xizmat safari xarajatlari uchun mablag‘ berish tartibi” O‘z.R AV. tomonidan 2000 yil 5 iyunda № 932-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan.
26. “Byudjet tashkilotlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish maxsus jamg‘armasi to‘g‘risida yo‘riqnoma” O‘z.R AV. tomonidan 1995 yil 20 sentyabrda № 177-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan.
27. Byudjet tashkilotlarining asosiy vositalarining eskirishini aniqlash va buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom 2009 yil 30 oktyabrda 2028-son bilan Adliya Vazirligidan ro‘yxatdan o‘tgan.
28. Byudjet tashkilotlarida ishlovchi ayollarga homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa, fuqarolarning ayrim toifalariga uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to‘lash bo‘yicha imtiyozlar o‘rniga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan oylik kompensatsiya pul to‘lovlari hamda bola tug‘ilganida beriladigan bir yo‘la nafaqani to‘lash bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida Nizom 2010 yil 23 fevralda 2080-son bilan Adliya Vazirligidan ro‘yxatdan o‘tgan.
29. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari” T.: “O‘zbekiston” 2009 y.
30. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O‘zbekiston, 2010.
31. Karimov I.A. “Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim”. “Toshkent oqshomi” gazetasi, 2006 yil 13 fevral, 29(10.586)-son.
32. Ostanaqulov M. Davlat byudjeti g‘azna ijrosining buxgalteriya hisobi. O‘quv qo‘llanma./ M. Ostanaqulov. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009.
33. Ostanaqulov M. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi. O‘quv qo‘llanma./ M. Ostanaqulov. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009.

34. Ostanaqulov M. Davlat sektori va buxgalteriya hisobi. / M. Ostanaqulov. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010..

Qo‘shimcha adabiyotlar:

45. Krasnoperova O. Byudjetniy uchet - Moskva: "GrossMedia Ferlag", 2008.
46. Kondrakov N.P., Kondrakov I.N. Buxgalterskiy uchet v byudjetnix organizatsiyax. -M.: Prospekt, 2006.
47. Ostanakulov M. Buxgalterskiy uchet v shkolax. -T.: TGEU, 2007.
48. Vaxobov A.V. Gosudarstvenniy byudjet - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007.
49. Qosimova G. Davlat byudjeti ijrosining g‘aznachilik tizimi. O‘quv qo‘llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008.
50. Internet saytlari:
- www.buh.uz
- www.minfin.uz